

LIDERLAR BOSHQARUV FAOLIYATIDA INNOVATSIYA, MA'SULIYAT VA STRATEGIK TAHLIL

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6506358>

Mavlonova Sitora Sheraliyevna

O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti "Davlat va fuqarolik jamiyatni institutlari boshqaruvi" 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat boshqaruvi sohasida liderlar faoliyatining ahamiyati, liderlar faoliyatida ma'suliyat va strategik yondashuvning muhimligi yoritib berilgan. Shuningdek, muallif maqolada boshqaruv sohasida innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar: Lider tushunchasi, davlat boshqaruvi, strategiya, innovatsiya, intellektual salohiyat, kreativlik, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, ilmiy dunyoqarash.

Аннотация: В этой статье подчеркивается важность лидеров в государственном управлении, важность подотчетности и стратегического подхода к лидерам. Также автор упомянул в статье особенности инноваций в сфере управления.

Ключевые слова: концепция лидера, государственное управление, стратегия, инновации, интеллектуальный потенциал, творчество, духовность, образование, научное мировоззрение.

Abstract: This article highlights the importance of leaders in public administration, the importance of accountability and a strategic approach to leaders. The author also mentions the specifics of innovation in management.

Keywords: Leader concept, public administration, strategy, innovation, intellectual potential, creativity, spirituality, education, scientific outlook.

Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari shahdam qadamlar bilan odimlab borayotgan davlatimiz o'z taraqqiyot va rivojlanish yo'lini belgilab olgandan so'ng boshqaruvin tizimiga ham alohida e'tibor qaratdi. Chunki mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqorolik jamiyatni barpo qilishni o'z oldiga oliy maqsad qilib belgilab olgach jamiyaning barcha sohalarida tub o'zgarishlar, islohatlarni amalga oshirish bevosita boshqaruvin tizmi faoliyati bilan chambarchas bog'liq edi. Bugungi kunda O'zbekiston uchun boshqaruvin tizmida olib borilayotga ijobiy ishlar, lider shaxlar faoliyatini takomillashtirish, rahbar kadrlarning boshqaruvin sohasidagi boradagi ma'suliyatini oshirish, e'tiborni kuchaytirish, ularning bilim saviyasining yanada yuqori bo'lishi, ularga yetarli shart-sharoitlarni yaratish masalasi

hamda ular faoliyatida ham innovatsion yondashuvning kerakligi bugungi kunning hal qilinishi kerak bo'lgan zaruriy shartiga aylandiki bu bevosita taraqqiyotning muhim bir omiliga aylanib ulgurdi. Ijtimoiy hayotining barcha sohalarini, ya'ni iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy jabhalarini yangi pog'onaga yuksaltirishda boshqaruvning oqilona va samarali amalga oshirilishi bu sohadagi lider shaxslarning boshqaruvdagi faoliyatiga ham bog'liqdir. Zero, adolatli siyosatning asosini avvalo, samarali tashkillashtirilgan boshqaruv tizmi tashkil etishini unutmasligimiz kerak. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari yoki asarlari mazmunini tashkil qiluvchi konseptual g'oyalar, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi hamda Senat fraksiyalarida hamda hukumat doirasida boshqaruv tizmiga doir qabul qilinayotgan qarorlar ham bu masalani hozirgi kunning nechog'lik darajadagi dolzarb muammosi ekanligini ko'rsatmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev murojaatnomasida ham boshqaruvning xalqchil va adolatli bo'lishi kerakli haqida quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tgandi: "Ish yuzasidan talabchanlik qilish boshqa, odamlarning shaxsiyatiga tegish butunlay boshqa narsa. Odamlar ish yuzasidan sizga bo'ysunishi mumkin, boshqa har qanday alada siz bilan teppa-teng huquqqa ega ekanini aslo esdan chiqarmang. Barchamiz yaxshi bilamizki, xalqimiz oriyatli, nomusli xalq. Xalqimiz barcha narsaga chidashi mumkin, lekin takror-takror aytaman, adolatsizlik va nohaqlikka chiday olmaydi. Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi, lider shaxs odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish uchun rahbar etib tayinlanadi. Barcha bo'g'indagi rahbarlar – u vazir yoki hokim bo'ladimi, idora yoki tashkilot boshlig'i bo'ladimi, odob-axloqi va madaniyati bilan hammaga o'rnak va namuna bo'lishi zarur va shartdir"¹

Shu o'rinda lider so'zining ma'nosiga izoh beradigan bo'lsak, ko'plab xorij adabiyotlarda "yetakchi" atamasi aynan lider so'zi ma'nosida yoki o'rnida kelganligini ko'ramiz. O'zbek tilida esa "peshqadam" va "yetakchi" so'zlari majmuasi lider so'zi mohiyatini to'la ifodalashda qo'llash mumkin. Umuman olganda, lider shaxsiga hos jihatlardan biri – shaxsning vaziyatga muvofiq ravishda harakat qila olishi, tashabbuskorlik, topqirlik va mohirlik, boshqaruvchilik qobiliyati zamonaviy liderga xos fazilatlardir. Boshqaruvda lider asosan shaxslararo munosabatlarni boshqarish bilan birga jamiyat a'zolaring kayfiyatini ham

¹ http://old_xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/12316-1 ба <http://uza.uz/oz/society/ra-bar-yuksakmanaviyatli-ar-bir-ishda-barchaga-ibrat-b-lish-29-11-2017> (murojaat sanasi 30.10.2019-yil)

kuzatib borishi bugungi zamonaviy rahbar-liderlar faoliyatining muhim qismiga aylandi. Lider shaxs doimo jamiyat yoki guruh a'zolari davrasida bo'lib, doimo ularni yoki bu harakatlarga chorlaydi. Chunki lider shaxs boshqaruv sohasida jamiyat a'zolarining kayfiyatlari, intilishlari, qiziqishlari va shu bilan birga psixalogiyasidan ham xabardor bo'lishi kerakligi bugungi kunning rahbar-lider shaxslariga qo'yilgan davr talabiga aylanib ulgurdi.

Bugingi kunda butun dunyoda fan, ta'lim-tarbiya, ishlab chiqarish hamda uni boshqarish borasida modernizatsiya siyosatining qo'llanila boshlashi, barcha davlatlarning o'ziga xos boshqaruv tizmi va demokratiya tamoyillari asosida jamiyatni, xususan, mehnat jamoalarini boshqarish usullarini siyosat bilan chambarchas olib borishi munosabati bilan boshqaruv masalalariga bo'lган an'anaviy munosabat ham o'zgardi. Jumladan, mustaqil Ozbekistonda ham erkin fuqarolik jamiyatni qurish tamoyillarining yangidan belgilanganligi holda Yangi O'zbekiston sharoitida barcha jabhalarda, xususan, ijtimoiy sohalarda insonparvarlik siyosatining keng singdirilishi munosabati bilan rahbar xodimlarga va lider shaxslarga nisbatan qarshlar hamda ijtimoiy fikrda ham muayyan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bugun ayniqsa, Yangi O'zbekiston sharoitida bunyodkorlik sifatlariga ega bo'lган, o'z oilasi, mahallasi, shaxsan o'zi va jamiyat mafnaatini o'ylab mehnat qilayotgan fuqaro jamiyat tomonidan ijtimoiy himoyada bo'lib, uning faoliyatini muvofiqlashtirish, unga yetarli darajada ish sharoitlarini yaratish muhimdir. Xalqqa yaqin bo'lib, chin ma'noda uning dardi bilan yashash, har bir ishning istiqbolini yaqqol tasavvur qila olish – zamonaviy rahbar-liderga xos muhim fazilatlardan biridir.

Yurtimizda boshqaruv sohasida olib borilayotgan amaliy ishlar qatoriga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydag'i "Istiqlolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risiida"gi PQ-3755-sonli qarori² asosida istiqlolli boshqaruv kadrlarining tizimli asosda tanlab olinishini ta'minlash, shuningdek, davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat va boshqa davlat organlari, tashkilotlari tizimida ularning kasbiy malakasini uzlusiz oshirib borishga ko'maklashish maqsadida har 3 yilda istiqlolli boshqaruv kadrlarini tanlab olish bo'yicha "Taraqqiyot" respublika tanlovi o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan. Qarorga

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydag'i "Istiqlolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risiida"gi PQ-3755-sonli qarori //https://lexuz/docs/-3755274

muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi “Istiqlolli boshqaruv kadrlarini tanlash bo'yicha “Taraqqiyot” respublika tanlovi finali ishtirokchilari orasidan boshqaruv kadrlari zaxirasini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1018-sonli qarori³ qabul qilingan. Bugungi kunda dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, boshqaruvda, ayniqsa, uning uslublarini amaliy hayotga samarali tatbiq qilishda rahbar lider shaxslar faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sababi boshqaruv siyosatning xalqqa to'g'ri yetib borishi ulsrning bilim saviyasi, ma'naviyati, siyosatdan qanchalik xabardorlik darajasi bilan ham bevosita bog'liqdir. Chunki bugungi yangilanishlar sharoitida milliy-madaniy an'analarimizni hisobga olganda ham boshqaruvda gumanistik tamoyillarga keng yo'l ochish orqali fuqarolarda mustaqil fikr, fuqarolik pozitsiyasi, tashabbuskorlikning bo'lishi qanchalik ahamiyatli ekanligini yaxshi bilamiz. Shuning uchun ham yangi avlod liderlariga, boshqaruvchilariga qo'yiladigan talablar, ular xulqidan kutiladigan sifatlar jamiyatda sog'lom insoniy munosabatlarning barqarorlashuvi, sog'lom ma'naviy muhitning shakillanishi va o'zaro bag'rikenglik, shu bilan birga mehnat munosabatlarida, ishda o'ziga va hamkasblariga nisbatan talabchanlikni ham taqozo etadi.

XXI asrni axborot texnologiyalar asri yoki fundamental fanlar rivojlangan, yuksak intellektul, yuksak salohiyatli, bilimli shaxslar asri deyish ham mumkin. Bu holat boshqaruvga oid munosabatlar sohasida ham yangilanishlar, islohotlar yuz berishi, liderlik qobiliyatiga ega, intellektual saviyasi yuqori, zamonaviy fikrlaydigan shaxslarning adolatli, insonparvar va eng muhimi xalqchil bo'lgan boshqaruv usullaridan amaliy hayotda samarali foydalana olishni ham talab qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydag'i “Istiqlolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3755-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/-3755274>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” PF-4947-son Farmoni.

³O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 dekabrdagi “Istiqlolli boshqaruv kadrlarini tanlash bo'yicha “Taraqqiyot” respublika tanlovi finali ishtirokchilari orasidan boshqaruv kadrlari zaxirasini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 1018-sonli qarori // <http://lex.uz/pdfs/4106634>

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 14 dekabrdagi "Istiqlolli boshqaruv kadrlarini tanlash bo'yicha "Taraqqiyot" respublika tanlovi finali ishtirokchilari orasidan boshqaruv kadrlari zaxirasini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 1018-sonli qarori // <http://lex.uz/pdfs/41066342>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning "Yangi O'zbekiston" nashriga bergen intervyusi.19.08.2021-yil.
5. Hayitov, O.E. Boshqaruv psixologiyasi: O'quv qo'llanma. "Istiqlol"nashriyoti. - T., 2021.
6. Narzulla Boymurodov. Rahbar psixaloyiyasi: Oliy ta'lif, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmalarining ma'muriy xodimlari uchun qo'llanma. - T., 2007.
7. Hayitov O.E. Lavozimga da'vegar imidjini shakillantirish va rivojlantirish bosqichlari / Ta'lim menejmenti. - 2008. - № 2 (18).
8. Umaraliyeva M.A. Ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari// SamDU ilmiy axborothomasi. - 2015.№4(92).-128-132b. (13.00.00. №7)
9. Information and communication technologies in education: UNESCO Institute for information technologies in education, 2013.